**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KALDIBEKOV ALIBEK BOLATBEKOVICH**

# TA’LIM MUHITINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**UO‘K: 37.018.43.091.3:004**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Kaldibekov Alibek Bolatbekovich**
Ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi ……..... 3

**Калдибеков Алибек Болатбекович**
Методика развития технологической компетентности будущих педагогов на основе цифровизации образовательной среды ……..……....23

**Kaldibekov Alibek Bolatbekovich**
Methodology for developing the technological competence of future educators based on the digitalization of the educational environment …….....47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works .....51

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KALDIBEKOV ALIBEK BOLATBEKOVICH**

# TA’LIM MUHITINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped11403 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Hasanova Sumanbar Hamroqulovna**<br>pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Qayumova Nasiba Ashurovna**<br>pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| | **Kulmuradov Dilshod Istamovich**<br>pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Andijon davlat pedagogika instituti** |

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “___” 6 11 kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (998) 70-712-45-41; e-mail: . tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( _____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (998) 70-712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “____” _____kuni tarqatildi.

(2026 yil “____” _____ dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

**F.U.Qodirova**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**I.D.Qodirov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A.Ximmataliyev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ta’lim tizimini raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, interaktiv raqamli resurslar, raqamli ta’lim platformalari, o‘quv analitikasi va Big Data vositalaridan samarali foydalanish bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. “Yevropa oliy ta’lim makoni” konsepsiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70 yillik yubileyida qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”, YUNESKOning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi hamda Yevropa Komissiyasining “DigCompEdu” modelida pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasi, innovatsion faoliyatga tayyorligi, kasbiy moslashuvchanligi va ta’lim jarayonini texnologik vositalar asosida tashkil etish malakasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Bunda bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta’lim muhitida elektron kontent yaratish, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish, sun’iy intellekt yordamchisidan didaktik maqsadda foydalanish hamda o‘quv natijalarini analitik baholash kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy metodik ta’minotni takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Dunyodagi xalqaro pedagogik tajribalarga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida smart ta’lim, aralash ta’lim, raqamli platforma, adaptiv ta’lim, TPACK, multimedia didaktikasi, AI yordamchi, test tizimi va o‘quv analitikasi kabi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va texnologik tayyorgarligini rivojlantirishning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. OECD tomonidan ilgari surilayotgan raqamli ta’lim ekotizimi, YUNESKO va Yevropa ta’lim makoni tavsiyalarida ham ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, talabalarning raqobatbardoshligini oshirish, o‘qituvchining raqamli pedagogik faoliyatini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, pedagogik ta’lim jarayonida “Smartpedagog.uz” kabi raqamli platformalar, interaktiv raqamli modullar, vizual kontent, AI yordamchi, test tizimi va Big Data vositalari orqali bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning mustaqil raqamli dars loyihalash, natijalarni tahlil qilish va refleksiv pedagogik qaror qabul qilish malakasini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar global raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg‘un holda kechmoqda. Jumladan, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish, talabalarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy ta’lim paradigmasiga ko‘ra, bo‘lajak pedagog nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi, balki raqamli ta’lim muhitida darsni loyihalovchi, elektron resurs yaratuvchi, o‘quv faoliyatini monitoring qiluvchi, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanuvchi va o‘z pedagogik faoliyatini

analitik ma’lumotlar asosida takomillashtiruvchi mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Shu bois oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son, 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son [5], 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” PQ-358-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish, elektron ta’lim resurslari, pedagogik texnologiyalar, dasturiy-didaktik vositalar, raqamli kontent yaratish hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va texnologik kompetentligini rivojlantirish masalalari U.Sh.Begimqulov, A.A.Abduqodirov, F.M.Zakirova, M.E.Mamarajabov, M.R.Fayziyeva, M.T.Mambetniyazov, N.J.Quljonov, Sh.B.O‘roqova, O.S.G‘aniyeva, U.E.Nurullayeva, X.A.Usmonova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida raqamli ta’lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, elektron ta’lim resurslari, innovatsion ta’lim texnologiyalari, pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish va bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalalari E.S.Polat, N.V.Dneprovskaya, V.P.Tixomirov, M.V.Klarin, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, V.Aleynikov, V.Gritsenko, N.Sofronova, S.Udalov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda o‘qituvchilarning raqamli va texnologik kompetentligini rivojlantirish, texnologik-pedagogik bilimlar integratsiyasi, raqamli pedagogika, multimedia ta’limi, elektron ta’lim dizayni, sun’iy intellekt va o‘quv analitikasi

imkoniyatlaridan foydalanish masalalari P.Mishra, M.J.Koehler, C.Redecker, R.Vuorikari, G.Falloon, E.J.Instefjord, E.Munthe, J.Tondeur, P.A.Ertmer, A.Ottenbreit-Leftwich, F.Pettersson, M.Ghomi, D.Laurillard, F.Caena, N.Selwyn, A.W.Bates, R.E.Mayer, R.C.Clark, O.Zawacki-Richter, M.Bond, F.Gouverneur, W.Holmes, R.Luckin, C.Romero, G.Siemens, D.Ifenthaler kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ushbu tadqiqotlarda ta’limni axborotlashtirish, raqamli kompetentlik, elektron ta’lim resurslari, pedagogik texnologiyalar, multimedia didaktikasi, raqamli kontent yaratish, web-texnologiyalar, smart-learning, sun’iy intellekt, o‘quv analitikasi hamda pedagogik faoliyatni raqamli muhitda tashkil etish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan. Biroq bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini aynan ta’lim muhitini raqamlashtirish, “https://smartpedagog.uz/” platformasi, interaktiv raqamli modullar, vizual kontent, sun’iy intellekt yordamchisi, test tizimi, o‘quv analitikasi va Big Data vositalari integratsiyasi asosida rivojlantirish metodikasi maxsus pedagogik muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusini alohida ilmiy-metodik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruratini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining 561624-EEP. “Raqamli ta’lim muhitida malakali yetuk kadrlarni tayyorlash” (2023-2026-yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitining didaktik komponentlarini aniqlash;

ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish;

bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini innovatsion dasturiy-metodik ta’minot vositasida rivojlantirish jarayon samaradorligini ilmiy-amaliy dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika instituti, Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining jami 350 nafar talabalari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmeti**ni ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, metodikasi, vositalari va baholash mexanizmlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari** sifatida tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, kuzatuv, anketa, suhbat, test,

ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, monitoring, o‘quv analitikasi hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov natijalarini qayta ishlashda o‘rtacha qiymat, foizli o‘sish, samaradorlik koeffitsienti, Styudent t-mezoni va Pirson $\chi^2$ mezonlari qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitining didaktik komponentlari talabalarni statik va dinamik resurslarni akademik kombinatsiyalashga o‘rgatuvchi modulli kontentni mustaqil kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan jarayonda tezkor qaydli individual ta’lim trayektoriyasiga ko‘ra qo‘llash asosida ochib berilgan;

ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish modeli raqamli va pedagogik texnologiyalar integrallashgan diagnostik moslashuvchan metodik algoritmni talabalarning individual ehtiyojlari va kasbiy bo‘shliqlariga ko‘ra tuziladigan didaktik zanjirda mustaqil loyihaviy-ijodiy faoliyatga kreativ dizaynga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

texnologik kompetentlikni rivojlantirishning dasturiy-metodik ta’minoti talabalarda raqamli savodxonlik va metodik modellashtirish ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi kvazikasbiy topshiriqlarni raqamli ta’lim muhitida o‘quv maqsadlari va kasbiy standartlarga ko‘ra qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

texnologik kompetentlikning innovatsion dasturiy-metodik ta’minot vositasida rivojlanishi aralash (a’nanaviy, masofaviy va mustaqil) ta’lim shakllarida qo‘llaniluvchi resurslar multimodalligini hamda talabalar faoliyati monitoringida formativlikni personal kuchaytirish orqali ta’minlanishi ilmiy-amaliy jihatdan dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

https://smartpedagog.uz/ raqamli ta’lim platformasi asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik-metodik ta’minot ishlab chiqilgan;

interaktiv raqamli modullar, vizual kontent, test topshiriqlari, AI yordamchi bilan ishlash bo‘yicha metodik algoritmlar taklif etilgan;

bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini baholash uchun motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, refleksiv-baholovchi va kreativ-loyihalovchi komponentlar asosidagi diagnostik mezonlar ishlab chiqilgan;

o‘quv jarayonida raqamli platforma, test tizimi, o‘quv analitikasi va Big Data vositalaridan foydalanish orqali talabalarning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beruvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tajriba-sinov ishlari asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasining samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot muammosiga mos nazariy-metodologik yondashuvlarning tanlangani, mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarga tayanilgani, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetining o‘zaro mantiqiy bog‘liqligi, tajriba-sinov ishlarining bosqichma-bosqich tashkil etilgani, diagnostik

mezonlarning texnologik kompetentlik komponentlariga mos ishlab chiqilgani hamda olingan natijalarning matematik-statistik usullar orqali qayta ishlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari va konseptual-metodik modeli ishlab chiqilgani texnologik kompetentlikning raqamli ta’lim muhiti sharoitida integrativ kasbiy sifat tavsifida talqin etilganligi, uni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati https://smartpedagog.uz/ platformasi asosida ishlab chiqilgan metodika, interaktiv raqamli modullar, vizual kontent, AI yordamchi bilan ishlash algoritmlari, test tizimi, o‘quv analitikasi va baholash mezonlaridan pedagogika yo‘nalishlarida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, amaliy topshiriqlar ishlab chiqish hamda talabalarning texnologik kompetentligini diagnostika qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitining didaktik komponentlari talabalarni statik va dinamik resurslarni akademik kombinatsiyalashga o‘rgatuvchi modulli kontentni mustaqil kasbiy faoliyatiga yo‘naltirishga oid takliflari “Mutaxassislikka kirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-706-sonli guvohnomasi). Natijada, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish modeli raqamli va pedagogik texnologiyalar integrallashgan diagnostik moslashuvchan metodik algoritmni talabalarning individual ehtiyojlari va kasbiy bo‘shliqlariga ko‘ra tuziladigan didaktik zanjirda mustaqil loyihaviy-ijodiy faoliyatga kreativ dizaynda ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan 2025-2026 yillarda Buxoro davlat texnika universitetida Erasmus dasturi doirasida “Markaziy Osiyoda “BigData Intelligent Analysis” bo‘yicha o‘quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish” mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (Buxoro davlat texnika universitetining 2026-yil 26-iyundagi 01/04-130-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ta’lim muhitini raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning raqamli platformalar bilan ishlash, o‘quv natijalarini tahlil qilish hamda raqamli pedagogik faoliyatni samarali boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

texnologik kompetentlikni rivojlantirishning dasturiy-metodik ta’minoti talabalarda raqamli savodxonlik va metodik modellashtirish ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi kvazikasbiy topshiriqlarni raqamli ta’lim muhitida o‘quv maqsadlari va kasbiy standartlarga ko‘ra qo‘llashga oid

xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Agar” ko‘rsatuvining “Mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimi O‘zbekiston ta’limida kerakmi?" mavzusi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «ma’rifat ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 2025-yil 12-dekabrdagi 01-09/944-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini baholash imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan metodik va amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishining asosiy mazmuni va g‘oyalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertasiya ishining umumiy hajmi 128 sahifadan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida ta’lim muhitini raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish, raqamli va pedagogik texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan metodik tizimlarni takomillashtirish hamda pedagog kadrlarni zamonaviy raqamli ta’lim talablariga muvofiq tayyorlashning jahon ta’lim makonidagi o‘rni va respublikamiz oliy pedagogik ta’limini modernizatsiyalash sharoitidagi ilmiy-metodik ahamiyati ochib berilgan. Bo‘lajak pedagoglarda elektron ta’lim kontentini yaratish, interaktiv topshiriqlarni loyihalash, sun’iy intellekt yordamchisidan didaktik maqsadlarda foydalanish, o‘quv analitikasi asosida ta’lim natijalarini tahlil qilish hamda raqamli darslarni mustaqil loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik zarurati asoslangan. Mazkur muammoning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog‘liqlikda yoritilgan. Tadqiqotning metodologik apparatini shakllantirishda milliy, MDH va xorijiy tadqiqotchilarning raqamli ta’lim muhiti, texnologik va raqamli kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, smart-ta’lim, sun’iy intellekt hamda o‘quv analitikasiga oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, muammoning o‘rganilganlik darajasi aniqlashtirilgan. Shunga ko‘ra, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, shuningdek, raqamli ta’lim muhitining didaktik komponentlarini individual ta’lim trayektoriyasi asosida qo‘llash, bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish modelini diagnostik-

moslashuvchan metodik algoritm asosida takomillashtirish, kvazikasbiy topshiriqlar vositasida raqamli savodxonlik va metodik modellashtirish ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirish hamda multimodal resurslar va formativ monitoring imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog‘liq ilmiy yangiliklar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda bo‘lajak pedagog texnologik kompetentligini raqamli ta’limning texnik atributi sifatida emas, balki pedagogik faoliyatni loyihalash, amalga oshirish, diagnostika qilish va refleksiv takomillashtirishni ta’minlovchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin etishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Bob doirasida “kompetensiya”, “kompetentlik”, “raqamli kompetentlik” va “texnologik kompetentlik” kategoriyalarining semantik-metodologik chegaralari aniqlashtirilib, mavjud konsepsiyalarda texnologik tayyorgarlikning ko‘proq vositaviy-operatsion jihatlari yoritilgani, zamonaviy raqamli pedagogikada esa texnologiyani pedagogik maqsad, mazmun, faoliyat, baholash va refleksiya bilan integratsiyalash zarurati kuchayayotgani asoslangan.

Xorijiy ilmiy maktablarda mazkur muammoning talqin etilishi bir xil metodologik platformaga ega emasligi aniqlandi. C.Redeckerning DigCompEdu konsepsiyasi o‘qituvchining raqamli faoliyatini kasbiy ishtirok, raqamli resurslar, o‘qitish, baholash va ta’lim oluvchini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida tizimlashtirsa, P.Mishra va M.J.Koehlerning TPACK modeli texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlarning kesishuvini markaziy determinant sifatida ko‘radi. UNESCOning ICT Competency Framework for Teachers doirasida esa texnologik kompetentlik o‘quv dasturi, pedagogika, ta’limni tashkil etish va kasbiy rivojlanish bilan institutsional aloqadorlikda talqin qilinadi. G.Falloon, E.J.Instefjord, E.Munthe, J.Tondeur va F.Pettersson tadqiqotlarida raqamli vositalarni egallashning o‘zi pedagogning professional raqamli kompetentligini kafolatlamasligi, uning pedagogik e’tiqodi, metodik qaror qabul qilishi, kasbiy tajribasi va ta’lim muhitining tashkiliy imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgandagina barqaror kasbiy sifatga aylanishi ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuvlarni qiyoslash texnologik kompetentlikni “vositadan foydalanish” paradigmasidan “raqamli-pedagogik faoliyatni loyihalash va boshqarish” paradigmasiga o‘tkazish zaruratini yuzaga chiqargan.

Mahalliy tadqiqotlarda U.Sh.Begimqulov va A.A.Abduqodirov tomonidan ta’limni axborotlashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari, M.T.Mambetniyazov tomonidan web-texnologiyalarning kasbiy tayyorgarlikdagi imkoniyatlari, N.J.Quljonov tomonidan dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish metodikasi, O.S.G‘aniyeva tomonidan raqamli kontent yaratish kompetentligini shakllantirish, U.E.Nurullayeva tomonidan smart-learning texnologiyalari, X.A.Usmonova tomonidan sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Ushbu izlanishlar raqamli pedagogikaning muayyan segmentlarini ilmiy asoslagan bo‘lsa-da, elektron kontent, platformaviy faoliyat, interaktiv topshiriq, raqamli diagnostika, o‘quv analitikasi, sun’iy intellekt yordamchisi va refleksiv

loyihalashni bo‘lajak pedagog texnologik kompetentligining yagona rivojlanish mexanizmi sifatida integratsiyalash masalasi alohida metodik tizim darajasida yetarlicha yechilmaganligi aniqlangan.

Mazkur nazariy bo‘shliqdan kelib chiqib, tadqiqotda bo‘lajak pedagogning texnologik kompetentligi pedagogik maqsad va o‘quv mazmunini raqamli texnologiyalar bilan didaktik jihatdan integratsiyalash, elektron resurslarni asosli tanlash va yaratish, interaktiv ta’lim faoliyatini tashkil etish, raqamli ma’lumotlar asosida natijalarni diagnostika qilish hamda o‘z pedagogik faoliyatini refleksiv-kreativ takomillashtirish imkonini beruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida aniqlashtirilgan. Bunday talqin texnologik kompetentlikning raqamli savodxonlikdan prinsipial farqini ko‘rsatadi: raqamli savodxonlik vosita bilan ishlash imkoniyatini bildirsa, texnologik kompetentlik vositaning qachon, nima uchun, qanday didaktik vazifada va qanday natijani ta’minlash uchun qo‘llanishini pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatini ham qamrab oladi.

Texnologik kompetentlikning ichki strukturasi ham aynan shu metodologik pozitsiyadan kelib chiqib motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, refleksiv-baholovchi va kreativ-loyihalovchi komponentlar birligida tizimlashtirilgan. Ushbu komponentlarning ketma-ketligi oddiy tasnif emas, balki kompetentlik rivojlanishining ichki mantiqini ifodalaydi: kasbiy motivatsiya texnologiyani ongli qabul qilishni, kognitiv tayyorgarlik uning didaktik imkoniyatlarini anglashni, operatsion faoliyat bilimni real pedagogik harakatga aylantirishni, refleksiv baholash natijani tahlil qilishni, kreativ loyihalash esa mavjud tajribani yangi pedagogik mahsulot darajasida qayta konstruksiyalashni ta’minlaydi. Shu ma’noda kreativ-loyihalovchi komponent texnologik kompetentlikning reproduktiv faoliyatdan produktiv va innovatsion faoliyatga o‘tishini ifodalovchi yuqori tartibli tarkibiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

R.E.Mayer va R.C.Clarkning multimedia ta’limiga oid nazariy qarashlari raqamli kontent samaradorligini uning tashqi texnologik jozibadorligidan emas, balki kognitiv yuklamani boshqarish va mazmunni pedagogik qayta ishlash imkoniyatidan kelib chiqib baholash zarurligini ko‘rsatadi. D.Laurillard o‘qituvchini tayyor texnologiyalarni iste’mol qiluvchi emas, balki ta’lim jarayonining dizayneri sifatida talqin qiladi. N.Selwyn esa texnologiyaning ta’limga joriy qilinishi avtomatik ravishda pedagogik samaradorlikni yuzaga keltirmasligini, uning natijasi metodik kontekst va pedagogning kasbiy qaroriga bog‘liqligini asoslaydi. Ushbu ilmiy pozitsiyalar tadqiqotda raqamli muhitning texnik imkoniyatlarini emas, uning didaktik tashkil etilish mexanizmlarini markaziy tadqiqot predmeti sifatida qarashga asos bo‘lgan.

Shunga muvofiq, raqamli ta’lim muhiti pedagogik jarayonning tashqi texnologik qobig‘i emas, balki maqsad, mazmun, resurs, faoliyat, kommunikatsiya, diagnostika, monitoring, adaptiv qo‘llab-quvvatlash va refleksiyani o‘zaro funksional bog‘lovchi integrativ didaktik tizim sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda ushbu tizimning maqsadli-didaktik, mazmuniy-kontent, texnologik-platformaviy, interaktiv-faoliyatli, kommunikativ-hamkorlik, diagnostik-baholash, analitik-monitoring, AI-adaptiv va refleksiv-kreativ komponentlari ajratilib, ular o‘rtasidagi aloqadorlik “maqsad → mazmun → faoliyat → baholash → monitoring →

refleksiya → takomillashtirish” didaktik sikli orqali izohlangan. Mazkur sikl texnologik kompetentlikni alohida ko‘nikmalar yig‘indisidan muntazam boshqariladigan va qayta rivojlantiriladigan kasbiy sifatga aylantiradi.

Dissertatsiyada ilgari surilgan statik va dinamik resurslarni akademik kombinatsiyalash tushunchasi ham aynan shu nuqtada ilmiy mazmun kasb etadi. Statik resurslar – matn, jadval, slayd, PDF va tayyor vizual materiallar – o‘quv mazmunining nisbatan barqaror komponentini ifodalasa, interaktiv test, AI yordamchi, chat, statistika, monitoring va boshqa dinamik resurslar talaba faoliyati hamda olingan natijaga qarab o‘zgaradigan pedagogik ta’sir imkoniyatini yaratadi. Ularni “akademik kombinatsiyalash” turli formatlarni bir platformaga joylashtirishni emas, balki har bir resursning o‘quv maqsadi, amaliy harakat, diagnostik dalil va refleksiv natija bilan funksional bog‘lanishini anglatadi. Natijada modulli kontent “mazmunni uzatish” vositasidan talabaning mustaqil kasbiy faoliyatini tashkil etuvchi metodik konstruksiyaga aylanadi.

Mazkur mantiq tezkor qaydli individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasini ham yangi mazmunda talqin qilishga imkon bergan. Individual trayektoriya mazmunni har bir talabaga alohida taqdim etish bilangina cheklanmay, diagnostika natijalariga ko‘ra aniqlangan kasbiy bo‘shliq va individual ehtiyojga mos metodik ta’sirni tanlash jarayoni sifatida qaralgan. Bunda “natijani qayd etish → qiyinchilikni aniqlash → kasbiy bo‘shliqni interpretatsiya qilish → mos resurs yoki topshiriqni tanlash → qayta bajarish → qayta baholash” sikli individual rivojlanishni boshqarishning metodik mexanizmini tashkil etadi. Shu jihatdan raqamli ma’lumotlar o‘z-o‘zicha pedagogik qaror emas, balki o‘qituvchi tomonidan interpretatsiya qilinadigan diagnostik dalil sifatida baholanadi.

Raqamli muhitning mazkur didaktik imkoniyatlari o‘z-o‘zidan ishlamasligi sababli tadqiqotda ularni faollashtiruvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi ham asoslangan. Normativ-metodologik, tashkiliy-boshqaruv, didaktik-kontent, metodik-faoliyatli, texnologik-infratuzilmaviy, kommunikativ-hamkorlik, diagnostik-baholash, analitik-monitoring, AI-etik va motivatsion-refleksiv-kreativ omillarning o‘zaro aloqadorligi texnologik kompetentlikni shakllantirishning zarur pedagogik konteksti sifatida qaralgan. Ayniqsa, AI-adaptiv qo‘llab-quvvatlashni inson nazorati, akademik halollik va tanqidiy verifikatsiya bilan uyg‘unlashtirish, platforma ma’lumotlarini esa nazorat vositasidan ko‘ra individual rivojlanish dinamikasini aniqlovchi diagnostik manba sifatida qo‘llash metodologik jihatdan muhim deb topilgan.

Nazariy tahlillarni umumlashtirish natijasida bo‘lajak pedagog texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi boshlang‘ich diagnostika → individual ehtiyoj va kasbiy bo‘shliqni aniqlash → maqsadni konkretlashtirish → modulli kontent va resurslarni akademik kombinatsiyalash → kvazikasbiy/interaktiv faoliyatni tashkil etish → adaptiv metodik qo‘llab-quvvatlash → diagnostik baholash va analitik monitoring → refleksiv tahlil → kreativ raqamli mahsulotni qayta loyihalash siklida namoyon bo‘lishi nazariy jihatdan asoslangan. Mazkur mexanizmda talaba raqamli vositalarning passiv foydalanuvchisidan o‘z kasbiy faoliyatini texnologik-didaktik jihatdan loyihalovchi, natijalarini tahlil qiluvchi va


metodik qarorlarini mustaqil takomillashtiruvchi subyektga aylanishi nazarda tutiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, birinchi bob doirasida texnologik kompetentlikning kategoriyaviy chegaralarini aniqlashtirish, uning besh komponentli strukturasi, raqamli ta’lim muhitining to‘qqiz didaktik komponenti, statik va dinamik resurslarni akademik kombinatsiyalash mexanizmi, individual trayektoriyani tezkor diagnostik qaydlar asosida boshqarish hamda mazkur jarayonni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar o‘rtasidagi tizimli bog‘lanish nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu nazariy konstruksiya tadqiqotning keyingi bosqichida diagnostik-moslashuvchan algoritmga ega modelni takomillashtirish, platformaga asoslangan dasturiy-metodik ta’minotni ishlab chiqish hamda uning tajriba-sinov samaradorligini aniqlash uchun metodologik asos vazifasini bajargan.

Dissertatsiyaning **“Ta’lim muhitini raqamlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida birinchi bobda aniqlashtirilgan nazariy-metodologik konstruksiyalar amaliy metodik tizimga transformatsiya qilingan. Bobning ilmiy mantiqi uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda qurilgan: bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish; ushbu modelning dasturiy-didaktik tashuvchisi sifatida Smartpedagog.uz platformasini yaratish talablari va bosqichlarini belgilash; platforma vositasida nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish.

Mazkur uchlik “nazariy konstruksiya – raqamli muhit – pedagogik faoliyat” o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlab, texnologik kompetentlikni tasodifiy shakllanuvchi raqamli ko‘nikmalar majmui emas, balki diagnostika qilinadigan, moslashtiriladigan, monitoring va refleksiya asosida takomillashtiriladigan kasbiy sifat sifatida rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Modelni takomillashtirishda birinchi bobda aniqlashtirilgan didaktik komponentlar va pedagogik shart-sharoitlarni real o‘quv jarayonida amal qiladigan boshqaruv mexanizmiga aylantirish asosiy metodologik vazifa bo‘ldi. Shu sababli model jarayon tarkibini aks ettiruvchi statik sxema emas, balki ijtimoiy buyurtma va normativ asoslardan natijaviy holatgacha bo‘lgan pedagogik harakatlar, ularning o‘zaro aloqasi va qayta aloqa mexanizmini ifodalovchi ilmiy-metodik konstruksiya sifatida ishlab chiqildi (1-rasm).


Takomillashtirilgan model ijtimoiy buyurtma va normativ asoslar, maqsadli, nazariy-metodologik, didaktik, platformaviy-texnologik, diagnostik-moslashuvchan, jarayonli-metodik hamda natijaviy bloklarning funksional birligiga asoslanadi. Nazariy-metodologik blokda kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga va shaxsga yo‘naltirilgan, konstruktivistik, raqamli-didaktik hamda refleksiv yondashuvlar integratsiyalangan. DigCompEdu, DigComp 2.2, UNESCO ICT-CFT, TPACK va pedagogik dizayn konsepsiyalari modelning xalqaro ilmiy tayanchini tashkil etadi. Didaktik komponentlar esa maqsadli-didaktik, mazmuniy-kontent, texnologik-platformaviy, interaktiv-faoliyatli, kommunikativ-hamkorlik, diagnostik-baholash, analitik-monitoring, AI-adaptiv va refleksiv-kreativ birliklarni o‘quv jarayoniga tatbiq etadi.




**1-rasm. Bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli**

Modelning asosiy ilmiy xususiyati diagnostik-moslashuvchan metodik algoritmda namoyon bo‘ladi. Unda diagnostika boshlang‘ich nazorat bilangina cheklanmay, keyingi metodik qarorlarni belgilovchi uzluksiz mexanizm sifatida qaraladi. Talabaning tayyorgarligi, test natijalari, topshiriqlarni bajarishi, platformadagi faolligi, ekspert bahosi va refleksiyasi asosida individual ehtiyoj hamda kasbiy bo‘shliqlar aniqlanadi. Shunga ko‘ra mos modul, qo‘shimcha topshiriq, AI tavsiyasi, qayta test yoki individual maslahat belgilanadi va natija qayta baholanadi. “Diagnostika – ehtiyoj – kasbiy bo‘shliq – mos metodik ta’sir – qayta baholash” sikli modelning adaptivligini ta’minlaydi.

Jarayonli-metodik qism “o‘rganish – loyihalash – qo‘llash – baholash – refleksiya – takomillashtirish” ketma-ketligiga asoslanib, talabani tayyor raqamli resurs iste’molchisidan mustaqil raqamli pedagogik mahsulot yaratuvchi subyektga olib boradi. Mustaqil loyihaviy-ijodiy faoliyat pedagogik vaziyatni tahlil qilish, raqamli vositani asosli tanlash, mahsulot yaratish, baholash va qayta aloqa asosida takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. “Kreativ dizayn” esa tashqi bezak emas, balki pedagogik maqsad, mazmun, faoliyat, vosita va baholashni yagona metodik yechimga integratsiyalash jarayoni sifatida talqin qilinadi.





**2-rasm. Smartpedagog.uz platformasida o‘qituvchi panelining bosh sahifasi**


Modelning platformaviy-texnologik bloki Smartpedagog.uz orqali amaliy ifodasini topadi. Platforma alohida texnik vosita emas, balki modelning didaktik, diagnostik, jarayonli va monitoring bloklarini raqamli muhitda amalga oshiruvchi dasturiy-metodik vosita sifatida loyihalashtirilgan. O‘qituvchi panelida darslar, mavzular, testlar, guruhlar, statistika, yordam suhbati va AI funksiyalarining yagona boshqaruv maydonida birlashtirilishi pedagogik faoliyatni loyihalash, tashkil etish va tahlil qilishning uzviyligini ta’minlaydi (2-rasm).

Platformaning metodik qiymati uning modullari soni bilan emas, har bir modulning aniq pedagogik funksiyaga bo‘ysundirilganligi bilan belgilanadi. Darslar


va mavzular bo‘limlari modulli kontentni loyihalash hamda mazmunni bosqichma-bosqich tashkil etishga, testlar diagnostik baholashga, guruhlar kommunikativ va hamkorlikdagi faoliyatni boshqarishga, statistika o‘quv analitikasi va formativ monitoringga, AI vositalari esa individual tushuntirish, kontent va topshiriq variantlarini ishlab chiqish hamda kreativ loyihalashni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu sababli platformaning funksional modullari modeldagi texnologik kompetentlik komponentlari bilan bevosita bog‘langan: dars va mavzular kognitiv, test va topshiriqlar operatsion-faoliyatli, statistika refleksiv-baholovchi, AI vositalari kreativ-loyihalovchi, guruhli hamkorlik esa motivatsion-qadriyatli komponentning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.




**3-rasm. Smartpedagog.uz platformasining “Darslar bo‘limi” didaktik-funksional moduli**




**4-rasm. Smartpedagog.uz platformasining “AI yordamida mavzu yaratish” didaktik-funksional moduli**




**5-rasm. Smartpedagog.uz platformasining “Statistika va o‘quv monitoring” didaktik-funksional moduli**

Platformani ishlab chiqishda maqsadga muvofiqlik, modullilik, interaktivlik, o‘quv analitikasi, foydalanuvchi qulayligi, mobil moslashuv, axborot xavfsizligi va AI-etik talablar o‘zaro bir butun tizim sifatida qaralgan. Ayniqsa, AI vositalaridan foydalanishda inson nazorati, akademik halollik, javoblarni tanqidiy tekshirish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish shartlari metodik talab darajasiga ko‘tarilgan. Bu holat platformani generativ vositadan foydalanishni avtomatlashtiruvchi servis emas, balki pedagogik qaror uchun yordamchi muhit sifatida talqin qilish imkonini beradi.

**1-jadval**

**Smartpedagog.uz platformasiga qo‘yiladigan asosiy pedagogik-didaktik talablar**

| Talab | Metodik mazmuni | Platformadagi ifodasi |
|---|---|---|
| *Maqsadga muvofiqlik* | Har bir raqamli amal o‘quv maqsadi, natija va kompetentlik indikatori bilan bog‘lanadi. | Dars maqsadi, mavzu vazifasi, test mezoni, rubrika. |
| *Modullilik* | Mazmun kurs–mavzu–dars–topshiriq–test–refleksiya zanjirida tashkil etiladi. | Darslar, mavzular, testlar va guruhlar modullari. |
| *Interaktivlik* | Talaba tayyor axborotni qabul qilish bilan cheklanmay, faol pedagogik harakat bajaradi. | Test, topshiriq, loyiha, yordam suhbati. |
| *Analitika va monitoring* | Faoliyat dalillari asosida qiyinchilik va kasbiy bo‘shliq aniqlanadi. | Statistika, progress, test natijalari, faollik. |
| *AI-etik va xavfsizlik* | AI javobi inson nazorati ostida tekshiriladi; akademik halollik va ma’lumotlar himoyasi ta’minlanadi. | AI yordamchi, rollarga asoslangan kirish, loglash va ma’lumotlarni minimallashtirish. |
| *UI/UX va mobil moslashuv* | Platformadan foydalanish kognitiv va texnik ortiqcha yuklamani oshirmasligi kerak. | O‘qituvchi/talaba panellari, mobil ko‘rinish, tushunarli navigatsiya. |

Platformani yaratish jarayoni texnik ishlab chiqishning chiziqli ketma-ketligi emas, balki pedagogik talablar asosida muntazam tekshirib boriladigan iterativ jarayon sifatida tashkil etilgan. Ehtiyojlar aniqlangach, konsept va texnik topshiriq shakllantiriladi, foydalanuvchi rollari hamda ma’lumotlar modeli ishlab chiqiladi, asosiy modullar va AI/analitika mexanizmlari yaratiladi. Keyingi bosqichda funksional, didaktik, xavfsizlik, mobil moslashuv va foydalanuvchi qulayligi bo‘yicha sinovlar o‘tkaziladi. Pilot joriy etish, ekspert bahosi va foydalanuvchi faoliyati natijalari platformani takomillashtirish uchun qayta aloqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu asosda platforma “ehtiyoj – konsept – texnik topshiriq – arxitektura – modullar – AI/analitika – testlash – pilot – takomillashtirish” sikli asosida shakllantirilgan.

